



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 02.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



R.Y. Latipova, N.R. Xamidullayeva,

L.K. Yunusova, D.S. To'ychiyeva

Andijon davlat universiteti

Uzbekistan

DORIVOR ROZMARIN (ROSMARINUS OFFICINALIS) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abstract: This article discusses the botanical characteristics, distribution, chemical composition and medicinal properties of the rosemary plant. It provides information on the unique essential oils of rosemary, antioxidant compounds and therapeutic properties, and its widespread use in the food industry.

Keywords: rosemary, essential oil, camphor, caryophyllene, antioxidant, pinene, camphene, cineole, camphor.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rozmarin o'simligining botanik xususiyatlari, tarqalishi, kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Unda rozmarinning o'ziga xos efir moylari, antioksidant birikmalari va terapevtik xususiyatlari, oziq-ovqat sanoatida keng qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rozmarin, efir moyi, kamfora, kariofillen, antioksidant, pinen, kamfen, sineol, kamfora.

Аннотация: В статье рассматриваются ботанические свойства, распространение, химический состав и лечебные свойства растения розмарин. Он содержит информацию об уникальных эфирных маслах розмарина, антиоксидантных соединениях и терапевтических свойствах, а также о его широком использовании в пищевой промышленности.

Ключевые слова: розмарин, эфирное масло, камфора, кариофиллен, антиоксидант, пинен, камфен, цинеол, камфора.

Language: Uzbek

Citation: R.Y. Latipova, R. L., N.R. Xamidullayeva, N. X., L.K. Yunusova, L. Y., & D.S. To'ychiyeva, D. T. BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF THE MEDICINAL ROSEMARY (ROSMARINUS OFFICINALIS) PLANT. Universal International Scientific Journal, 1(9), 11–14. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1200>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14293549>

Dorivor rozmarin (*Rosmarinus officinalis*) - Labguldoshlar oilasi rozmarin (*Rosmarius*) turkumiga mansub o'simlik bo'lib, uning vatani O'rta yer dengizi atrofidagi davlatlardir. Yevropa va Afrika davlatlarida qadimdan ekib o'stiriladi. Shimoliy Afrika (Jazoir, Liviya, Marokash, Tunis), Turkiya, Kiprda yovvoyi holda o'sadi; Evropaning janubiy qismida - sobiq Yugoslaviya, Gretsiya, Italiya, Portugaliya, Ispaniya, Fransiyaning janubida o'sadi. Aksariyat hollarda, tarkibida ohak ko'p bo'lgan tuproqlarda, quruq qoyalarda, tog'larning janubiy yonbag'irlarida, quyosh yaxshi tushadigan joylarda uchraydi.

O'simlik Rossiyaga 1816 yilda Qrimdagi Nikitskiy botanika bog'iga keltirib ekilganligi ma'lum. Endilikda bu o'simlikni O'zbekistonda ham ekib o'stirish va undan foydalanish mumkinligi aniqlandi.

Rozmarindan qadim zamonlarda dorivor vosita sifatida foydalanishgan. Uning foydali xususiyatlari to'g'risida har bir xalqda turlicha qarashlar bo'lgan: rimliklar uni xotirani

yaxshilaydi deb hisoblashsa, greklar uning yordamida yaralarni davolashgan, xitoyliklar esa uning yordamida bosh og'rig'idan xalos bo'lganlar.

Rozmarin efir moyli ekin hisoblanib, O'rta dengiz havzasida 1-3 turi o'sadi. Doim yashil buta bo'lib, bo'yi 1,5–2 metrgacha o'sadi. Bargi va to'pgulidan efir moyi olinadigan dorivor Rozmarin (*R. officinalis*), asosan, Yevropa mamlakatlarida, shuningdek, Qrim va Kavkazda o'stiriladi. Qalamchasidan, kamdan-kam urug'idan ko'paytiriladi. 2-3 yillik ko'chatlari ekiladi. Ekilgandan keyin 2-3yildan boshlab bargi va to'pguli yig'ib olinadi. Hosildorligi 40-120 s/ga. Bargi va to'pguli tarkibida parfyumeriya va tibbiyotda ishlatiladigan 1,5- 2,5% (quruq moddaga nisbatan) efir moyi, 0,5% gacha rozmaritsin va boshqa alkaloidlar, ursol va rozmarin kislotalari bor. Butalari 7 - 9 yilda yoshartiriladi. O'simlik 20 - 25 yil hosil beradi.

Ko'p yillik o'simlik, ko'pincha butasimon shaklda o'sadi, shox-shabbasi zich joylashgan.

Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, yosh novdalari to'rt qirrali. Ildiz tizimi yaxshi taraqqiy etib, tuproqqa 3-4 m gacha kirib boradi. Barglari cho'ziq, to'mtoq uchli bargning ostki qismi dag'al tukchalar bilan qoplangan. Barglarining uzunligi 4 sm, eni 0,3 sm, qalinligi 1,5 - 2 mm bo'lib, cho'zinchoq qalami shaklda, bandsiz yoki qisqa bandi bilan poyada qarama-qarshi joylashgan. Ingichka, ignasimon, yashil va o'ziga xos hidga ega.

Gullari ikki labli mayda, qisqa gulbandiga ega bo'lib binafsha, och binafsha, ko'k yoki oq rangda, mayda gul shingillari hosil qiladi, bahor va yoz faslida gullaydi. Urug'i tuxumsimon, jigarrang, usti silliq, uzunligi 2-2,5 mm, eni 1-1,5 mm. Mevasi dumaloq-silliq, jigarrang yong'oq. 1000 dona urug' vazni 1,2-1,4 g ladi. Rozmarin novdalarining yuqori qismida, gulida, bargida efir moyi saqlaydi. Efir moyi tarkibida α -pinen (30%), kamfen (20%), sineol (10%), borneol, L- kamfora, kariofillen, bornilatsetat, limonen, smola va boshqa moddalar mavjud.

O'simlik tarkibidagi mavjud rozmarin kislotasi, karnosik kislota, ursolik kislota va flavonoidlar kuchli antioksidantlik ta'sirini ko'rsatadi, tanani erkin radikallardan himoya qiladi. Vitaminlardan Rozmarin barglari A, C va B6 vitaminlariga boydir. Minerallardan esa kalsiy, temir va magniy mavjud bo'lib, ular asab va mushak tizimlari uchun foydali hisoblanadi.

Rozmarinning shifobaxshlik xususiyatlariga kelsak, o'simlikning yer ustki barglari va yosh poyalaridan tayyorlangan damlama va spirtidagi eritmalari (nastoykasi) qorin va muskullar og'rig'ida , revmatizm, radikulit va fibromialgiyada, spazmda, hamda oshqozon buzilganida yordam beradi. Shuningdek qon bosimi oshishini oldini oladi, mikroba va zamburug'larga qarshi kurashadi, antioksidantlik vazifasini bajarib, miyadagi qarilik belgilari paydo bo'lishini sekinlashtiradi.

Rozmarin ziravor sifatida kam miqdorda ovqatlarga, choy va limonadlarga solishga yaxshi bo'lib, me'yorida ortiq iste'mol qilinganda esa, ovqat hazm qilish muammolarining kelib chiqishiga, bosh og'rig'iga va qon bosimining ko'tarilishiga sababchi bo'lishi mumkin. Homilador ayollar, kron kasalligi, oshqozon yarasi va qorin sanchishi kasalliklaridan aziyat chekuvchi insonlarga, gipertoniya kasalligiga duchor bo'lgan kishilarga rozmarindan juda kam miqdorda iste'mol qilishlari kerak, o'simlik moddalari bu insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib shuni ayta olamanki, rozmarin (*Rosmarinus officinalis*) o'simligi inson salomatligi uchun foydali o'simlik bo'lib tarkibidagi rozmarin kislotasi, karnosik kislota, ursolik kislota va flavonoidlar insonning aqliy faoliyatini kuchaytirish xususiyatiga ega,

bundan tashqari rozmarin tarkibidagi efir Yangi va quritilgan barglari go'sht, baliq, moylari xotira va diqqatni yaxshilaydi, shu kartoshka va sabzavot taomlariga o'ziga xos qatorida taomlarga ziravor sifatida qo'shiladi. xushbo'y hid beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ataboyeva X.N., Xudayqulov J.B., O'simlikshunoslik, Toshkent, 2018 y.
2. Xolmatov H.X, Ahmedov O'.A. Farmakognoziya, Toshkent, 1995 y.
3. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., Abdurakhmonova, M. A. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2022, July, vol. 1068, No. 1, p. 012047. IOP Publishing.
4. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qollaniladigan shifobaxsh osimliklar, Toshkent, 1993 y.
5. Prator.O.P, Nabiyeu.M.M. Ozbekiston yuksak o'simliklarning zamonaviy tizimi, Toshkent, 2007 y.
6. Xusanovna, A.M., Qudratovna, A.M. Ridge distribution of species of the genus scutellaria l.(lamiaceae) of the fergana valley. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023, 11(5), p. 2532- 2542.